



**МАКТАВ VA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA SENSOR
INTEGRATSIYASINING AHAMIYATI VA SENSOR INTEGRATSIYA
BUZILISHINING SIMPTOMLARI.**

Utbasarova Umida Mexmanovna

Alfraganus Universiteti oliy ta'lim tashkiloti

Pedagogika va Psixologiya PhD v.b dotsent

Isayeva Mushtariy Alisher qizi

Alfraganus Universiteti Pedagogika va Psixologiya

fakulteti, Defektalogiya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Sensor integratsiya bolalar organizmi bilan ishlashga yo'naltirilgan terapevtik usul hisoblanadi. Sezgi organlaridan olgan barcha ma'lumotlar miyaga yetib kelib, u yerda ular qayta ishlanadi va ma'lum bilim sifatida bizga yetkaziladi kelishi haqida ma'lumotlar berilgan. Ushbu maqolada sensor tizimlari qanchalik aniq ishlasa, miya shunchalik to'g'ri ma'lumot qabul qilib va shunchalik ko'p javob qaytarishi haqida fikr yuritilgan. Ushbu maqola mutaxassislarga va ota-onalarga foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: Sensor integratsiya, predmet, didaktiv, idrok, kognitiv, ob'ekt, analistik, fonematik idrok, psixolog, estetik, manipulyatsiya, tolerant.

Аннотация: Сенсорная интеграция - это терапевтический метод, ориентированный на работу с детским организмом. Вся информация, которую мы получаем от органов чувств, поступает в мозг, где она обрабатывается и передается нам как известное знание. Чем точнее работают сенсорные системы, тем больше мозг получает правильную информацию и реагирует на нее.



Ключевые слова: Сенсорная интеграция, субъект, дидактика, восприятие, познавательное, объектное, аналитическое,

фонематическое восприятие, психолог, эстетическое, манипулятивное, толерантное.

Abstract: Sensory integration is a therapeutic method focused on working with the child's body. All the information we receive from the senses goes to the brain, where it is processed and transmitted to us as known knowledge. The more accurately sensory systems work, the more the brain receives and responds to correct information.

Key words: Sensory integration, subject, didactic, perception, cognitive, object, analytical, phonemic perception, psychologist, aesthetic, manipulative, tolerant.

Kirish:

Sensor integratsiya buzilishlari bolalarning hayotini dastlabki bosqichlarida namoyon bo'ladi. Agar bola tengdoshlardan farqli o'laroq kech o'tirsa, emaklasa yoki o'yinchoqlarni ushlashga, olishga qiynalsa, bu holat sensor jarayonlarning buzilganligini ko'rsatishi mumkin. Agar sensor integratsiya jarayonni bolalarda buzilgan bo'lsa, bolalarning muvozanatni saqlashga, mustaqil harakatlanish, zinadan tushib chiqib kabi jarayonlarda diqqatni jamlashda qiyinchikka uchrashlari mumkin. Nutqni rivojlanishining kechikishi ham sensor integratsiya bilan bog'liq bo'lib, hattoki she'rlarni yodlashdagi qiyinchiliklar ham sensor integratsiya buzilishiga kirishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning sensor rivojlantirish va nutqini rivojlantirish o'rtaida bevosita bog'liqlik bo'ladi. Sensor rivojlanish (sezgi va idrok) bolaning atrofdagi hodisalari haqidagi tushunchalarini shakllantirishida muhim ahamiyatga ega.

Sensor integratsiya jarayonida bolalar turli shakllar va ularning rangi, kattaligi, xususiyatlari va fazoviy joylashuvi to'g'risidagi tushunchalar shakillanganda, turli his-

tuyg'ular shakillanadi. Shu bilan birga aqliy faoliyatni rivojlantirish uchun asos yaratiladi.

Sensor integratsiyaning nutqni shakllanishida ahamiyati muhim hisoblanadi. Sensor integratsiya va nutqiy rivojlanish bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, Sezgi va idrok organlarinining nutq o'stirishda o'rni muhim sanaladi. Sensor integratsiya rivojlanganida bolalarning lug'at boyligi oshadi va asta-sekin ularni qo'llay boshlaydi.

Maktabgacha yoshdagagi bolalarning rivojlanishining asosiy qismlaridan biri bu sensor integratsiya hisoblanadi. Atrof-olamni to'liq idrok etishni shakllantirishga qaratilgan sensor integratsiya dunyoni idrok etishning asosi bo'lib xizmat qiladi va bu jarayonning birinchi bosqichi hissiy tajriba. Aqliy, jismoniy va estetik tarbiyaning yaxshi rivojlanmasligi ko'p jihatdan sensor integratsiya bilan bog'liq bo'lib bu bolaning atrof-muhitni qanchalik to'liq eshitishi, ko'rishi va idrok etishiga bog'liq.

Sensor integratsiyaning ahamiyatlari:

aqliy rivojlanishning asosi	diqqatni rivojlantiradi
tashqi dunyodan olingan tartibsiz ma'lumotlarni, tasavvurlarni tartibga soladi	bolaga yangi bilim va ko'niklamarni o'zlashtirish imkonini beradi
kuzatuvchanlikni rivojlantiradi	sensor ma'lumotlarni o'zlashtirishni ta'minlaydi
haqiqatga dunyoga tayyorlaydi	o'quv faoliyat ko'nikmalarini egallahni ta'minlaydi

estetik hissiyotlarga ijobjiy ta'sir qiladi	bolaning so'z boyligini kengaytirishga ta'sir qiladi
tasavvur uchun asos hisoblanadi	ko'rish, eshitish, harakat va boshqa xotira turlarining rivojlanishiga ta'sir qiladi

Didaktik o'yinlar bolaning sensor idrokini rivojlanishini o'z ichiga oladi, bir tomonidan ular bolaning yoshini, faoliyat turini boshqa tomondan – ixtiyoriylik, mustaqil tanlov huquqi, o'zini namoyon qilishni hisobga olgan holda bo'ladi. Kundalik hayotda bola ranglarning xilma - xil shakllariga duch keladi-bu sevimli o'yinchoqlar va atrofdagi narsalardir.

Bola san'at asarlarini, rasmlarni ko'radi, musiqa eshitadi; bu bilimlarni o'zlashtirish o'z-o'zidan, kattalar yordamisiz sodir bo'ladi. Bu bilimlar sensor integratsiya orqali olinadi. Har bir yoshda sensor intagratsiyaning o'z vazifalari bor. Erta bolalik davrida rang, shakl, o'lcham haqida ma'llimotlar to'planadi. Bu tushunchalarning xilma-xilligi muhim hisoblanadi. Bolani – ranglari, geometrik shakllar - doira, kvadrat, to'rtburchaklar, uchburchak, to'p, kub, g'isht bilan tanishtirish kerak. Kognitiv ko'nikmalar va nutqni rivojlantirishda - taqqoslash orqali ob'ektlarning rangini, hajmini, shaklini aniqlash mumkin. So'zlarda tushunish va nutqda ishlatish uchun - kattalik va shakllar nomlarini o'rganish muhimdir.

O'rtacha muktabgacha yoshda bolalarda sensor integratsiyaning bosqichlar shakllanadi – ular ranglar, geometrik shakllar va bir nechta ob'ektlar orasidagi o'lchamni taqoslay oladilar. Bolalarda analistik idrokni ham rivojlantirish muhim ahamiyatga ega ranglarning kombinatsiyasini ajrata olish va ob'ektlarning shaklini ajratishda muhim ro'l o'ynaydi.

Boshlang'ich sinfda, savodxonlikni o'zlashtirishda nutqiy va nonutqiy tovushlarini farqlashda fonematik idrokning ro'li muhimdir. Sensor integratsiyani rivojlanmaganligi bolaning muktabda muvaffaqiyatli o'qish imkoniyatini sezilarli darajada kamaytiradi.

Maktabgacha ta'lif muassasalarining vazifasi yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quvchilarning to'liq rivojlanishini ta'minlash, ularni muktabda o'qishga tayyorlashdir. Bolaning muktabga tayyorligi asosan uning sensor sezgisi rivojlanishi bilan belgilanadi. Psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich ta'lif jarayonida (ayniqsa, birinchi sinfda) bolalarda yuzaga keladigan qiyinchiliklarning aksariyati idrokning aniqligi bilan bog'liq. Natijada, harflarni yozishda buzilishlar, rasm chizish, hunarmandchilikda noaniqliklar bo'lishi mumkin.

Bolalarda sensor sezgini rivojlanishini yaxshilash uchun maktabgacha ta'lif muassasalarida nazariyasi va amaliyotini boyitish kerak, ya'ni bolalar bog'chasida sensor integratsiyaning eng samarali vositalari va usullarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish kerak. Atrof-olamni bilish sezgi va idrokdan boshlanadi. Bolaning sezgi va idroki qanchalik boy bo'lsa, bola atrofdan olgan ma'lumotlari keng va koo'l qirrali bo'ladi. Aqliy, jismoniy, estetik, ekologik ta'lifning muvaffaqiyati ko'p jihatdan bolalarning sensor integratsiyasining rivojlanish darajasiga, ya'ni bolaning atrof-muhitni qanchalik mukammal eshitishi, ko'rishi, teginishiga bog'liq. Bolalarni bilish jarayoni kattalarni bilish jarayonidan farq qiladi. Kattalar dunyoni aql bilan, kichik bolalar esa his – tuyg'ular bilan o'rganadilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilim sohasini rivojlantirishga yordam beradigan ish tizimi bu o'yin hisoblanadi, chunki o'yinda yangi bilimlarni o'zlashtirish o'quv mashg'ulotlariga qaraganda ancha onson bo'ladi.

Sensor integratsiyaning buzilishi belgilari:

Taktil, ko‘rish, eshitish stimullariga, shuningdek, harakatlarga haddan tashqari yoki yetarlicha sezgir bo‘lmaslik, masalan, ba’zi fakturalarga (qum, bo‘tqa) tegishdan qochish; plastilin bilan shug‘ullanish, barmoqlar bilan rasm chizishdan qochish	velosiped haydashni o‘rganish bilan bog‘liq muammolar; arg‘imchoq, charxpalakda uchishdan qochish yoki bu o‘yinlarga haddan tashqari berilib ketish
manipulyatsiya qilish, oshxona anjomlari, qaychilardan foydalanish bilan bog‘liq muammolar; qalamni noto‘g‘ri ushslash	yozish va o‘qishni o‘rganishdagi qiyinchiliklar; tavsiyalarni tinglashdagi qiyinchiliklar
tovushlarga, yorug‘likka o‘ta sezuvchanlik	o‘ng va chap tomonlarni farqlashdagi qiyinchiliklar, ayniqsa, bolaning o‘ylashga vaqt bo‘lmasganda
doskadan ko‘chirib yozishda qiyinchiliklar, harflar, bo‘g‘inlarni tushirib qoldirish	boshqa shaxsning yaqinligiga nisbatan tolerantlik chegarasining pastligi
harakat faolligining juda yuqori yoki juda past darajasi	mushak tonusining buzilishi

Xulosa:

Xulosa qilib shun aytsak bo‘ladiki, sensor integratsiyaning to‘g’ri rivojlanishi bolaning umumiy rivojlanishida va to‘g’ri nutqiy ko‘nikmalar shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonning samaradorli rivojlanishi bolalarning atrof-muhitni to‘liq idrok etishiga, aqliy va jismoniy faoliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa o‘z o‘rnida bolaning kelgusidagi hayoti va o‘qishdagi muvaffaqiyatlariga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababdan, sensor integratiyani erta bolalikdan boshlab rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim.

Foydalanilgan adabyotlar:

1. Ananev B. G. "Psixologiya i problemi chelovechestva." I glava "Sensorno-perseptivnaya organizatsiya cheloveka"-M.: MPSI, MODEK, 2008.
2. Anoxin P.K. "Prinsipialnye voprosy obshchey teorii funktsionalnykh sistem"- M.: Nauka, 1973.
3. Vizel T.G. "Osnovy neyropsixologii"- M.: AST, 2009. zamonaviy ta’lim muammolari 2013. 2-sон.
6. Lyinskaya M.I. "Formirovaniye rechevoy deyatelnosti u ne govoryushchikh detey s ispolzovaniem innovatsionnykh texnologiy"-M.: Paradigma, 2012.
7. Sadovskaya Yu. 5. Bolalarda sensor buzilishlar, maxsus bola bilan tizimlashtirish va tashxislash. Issledovaniye i opit pomoshi, nauchn, - prakt, sb, - 2009. vypr. 6-7.- m. SAP.-
8. Seminovich A.V. "Neyropsixologicheskaya diagnostika i korreksiya v detskom vozraste"-M.:
9. Ulla Kisling "Sensornaya integratsiya v dialoge"-M.: Terevinf, 2016.
10. E.Jin Ayres "Bola va sensor integratsiya"- M.: Terevinf, 2009.

11.<https://cyberleninka.ru/article/n/sensornaya-integratsiya-kak-psihokorrektionskyy-metod-v-rabote-s-detmi-rannego-i-doshkolnogo-vozrasta-imeyuschimi-psihologicheskie>

12.<https://nsportal.ru/detskiy-sad/raznoe/2023/10/19/statya-na-temu-sensornaya-integratsiya-i-sensornoe-razvitiye-rebenka>